

e-ISSN 3060-5059

DOI: 10.67227



IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in
Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 8

2026



Founded in 2024



publishscience.uz



publish_science_journal@mail.ru



PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

BO'LAJAK BOSHLANG'ICH TA'LIM O'QITUVCHILARIDA KREATIVLIK KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

Omonboyeva Meruyert Erkin qizi

Navoiy davlat universiteti, o'qituvchi; Chirchiq davlat pedagogika universiteti, mustaqil izlanuvchi.

e-mail: meruyertekinovna8@gmail.com ORCID: <https://orcid.org/0009-0005-6764-1405>

Annotatsiya.

Mazkur maqolada bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarida kreativlik ko'nikmalarini rivojlantirishning nazariy-metodik asoslari tahlil qilingan. Kreativlik ko'nikmalarining mazmuni, ularni shakllantirishga ta'sir etuvchi omillar hamda pedagogik ta'lim jarayonida qo'llaniladigan zamonaviy metod va texnologiyalarning imkoniyatlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: kreativlik, ko'nikmalari, kreativ kompetensiya, pedagogik ta'lim, metodika, innovatsion ta'lim texnologiyalari, interfaol metodlar, muammoli ta'lim, kasbiy kompetentlik.

МЕТОДИКА РАЗВИТИЯ ТВОРЧЕСКИХ НАВЫКОВ У БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

Омонбоева Меруерт Эркин кизи

Навоийский государственный университет, преподаватель; Чирчикский государственный педагогический университет, независимый исследователь.

Аннотация.

В статье анализируются теоретико-методические основы развития творческих навыков у будущих учителей начальных классов. Освещены содержание навыков креативности, факторы, влияющие на их формирование, а также возможности современных методов и технологий, используемых в процессе педагогического образования.

Ключевые слова: креативность, навыки, творческая компетентность, педагогическое образование, методика, инновационные образовательные технологии, интерактивные методы, проблемное обучение, профессиональная компетентность.

METHODOLOGY FOR DEVELOPING CREATIVE SKILLS IN FUTURE PRIMARY SCHOOL TEACHERS

Omonboyeva Meruyert Erkin qizi

Navoi State University, Lecturer; Chirchiq State Pedagogical University, Independent Researcher.

Abstract.

This article analyzes the theoretical and methodological foundations of developing creative skills in future primary education teachers. The content of creative skills, the factors influencing their formation, and the possibilities of modern methods and technologies used in the pedagogical education process are highlighted.

Keywords: creativity, skills, creative competence, pedagogical education, methodology, innovative educational technologies, interactive methods, problem-based learning, professional competence.

Kirish. Bugungi kunda ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, ta'lim sifatini oshirish va xalqaro ta'lim standartlariga mos kadrlarni tayyorlash ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Bu jarayonda qozoq ta'lim yo'nalishi guruhlarida tahsil olayotgan bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish bilan bir qatorda, ularning kreativ fikrlash va ijodiy yondashuv ko'nikmalarini shakllantirish ham alohida ahamiyat kasb etmoqda. Bugungi kunda yurtimizdagi ayrim oliy ta'lim muassasalarida qozoq ta'lim yo'nalishi guruhlari faoliyat yuritmoqda. Jumladan, Chirchiq davlat pedagogika universiteti hamda Navoiy davlat universitetida bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilari qozoq tilida tahsil olmoqda. Mazkur ta'lim yo'nalishida tahsil olayotgan talabalarni zamonaviy ta'lim talablariga mos, raqobatbardosh mutaxassis sifatida tayyorlash bugungi kunning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Shu sababli qozoq ta'lim yo'nalishi talabalarining kasbiy kompetensiyalarini, ayniqsa, kreativ fikrlash va innovatsion yondashuv ko'nikmalarini rivojlantirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Bugungi ta'lim tizimi nafaqat chuqur nazariy bilimga ega, balki yangicha fikrlay oladigan, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni samarali qo'llaydigan o'qituvchini talab etadi. Kreativ pedagog o'quvchilarning bilim olishga bo'lgan qiziqishini oshira oladi, dars jarayonini mazmunan boyitadi hamda ta'lim sifatini yuksaltirishga xizmat qiladigan

innovatsion yondashuvlarni amaliyotga tatbiq etadi. Ayniqsa, boshlang'ich ta'lim bosqichi bolalarning bilim olishga bo'lgan munosabati, mustaqil fikrlashi, ijodiy faolligi va shaxs sifatida shakllanishining dastlabki poydevorini yaratadi. Shu bois qozoq ta'lim yo'nalishidagi bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarida kreativ kompetensiyani shakllantirish va izchil rivojlantirish alohida e'tibor talab etadi.

Mazkur jarayonning samaradorligi, avvalo, o'qituvchining kreativ yondashuvi, kasbiy mahorati va innovatsion faoliyatiga bog'liq. Ba'zan tanqidiy fikrlash ijodkorlikni cheklaydi, degan qarashlar ham uchraydi. Bunday fikr to'liq asosli emas. Aksincha, tanqidiy fikrlash va kreativlik bir-birini to'ldiradigan, o'zaro uzviy bog'liq jarayonlardir. Qozoq ta'lim yo'nalishi talabalar uchun tanqidiy fikrlash mavjud g'oyalarni chuqur tahlil qilish, ularning afzallik va kamchiliklarini baholash imkonini bersa, kreativlik esa muammolarga yangicha yondashish, noan'anaviy yechimlarni ilgari surish va innovatsion g'oyalarni yaratishga xizmat qiladi. Ushbu ikki ko'nikmaning uyg'un rivojlanishi bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy faoliyatida samarali qarorlar qabul qilishi hamda ta'lim jarayonini yanada mazmunli tashkil etishiga zamin yaratadi.

Kreativlik – shaxsning muammoli vaziyatlardan tafakkuri orqali takrorlanmas yo'l bilan chiqib ketish, unga ijodiy yondasha olish qobiliyati hisoblanadi. Kreativlik tushunchasi (lot., ingl. «create» – yaratish, «creative» – yaratuvchi, ijodkor) ingliz tilidan tarjima qilinganda ijod ma'nosini anglatadi. Kreativ fikrlash – bu faqat maktabdagi ko'nikma emas, balki hayotiy ko'nikmadir [5]. Kreativ fikrlash faqat talabalar uchun emas, u o'qituvchilar uchun ham zarur ko'nikmadir. Kreativlikni oshirish o'qituvchini kuchli, yangiliklar bilan boyitilgan, muammolar bo'yicha shakllangan fikrlarini ijodiy yondashuvlar orqali ifodalashga o'rgatadi [2]. Inson miyasi o'z ishini osonlashtirish, ko'p kuch sarflamaslik uchun stereotiplardan foydalanadi. Stereotiplar shu paytgacha ma'lum bo'lgan va hamma qabul qilgan fikrlardir. Ular asosida fikrlash bizga hech qanday yangi g'oya bermaydi. Insonlar ommadan ajralmaslik nuqtayi nazaridan hammaning fikriga qo'shiladilar. Shuningdek, hammaning fikriga qo'shilish mustaqil fikrlashdan ko'ra osonroqdir. Shuning uchun ko'p insonlar aynan qoliqlar asosida fikrlashni xush ko'radilar. Ba'zi hollarda insonda istamagan holda ham ajoyib fikr tug'ilishi mumkin. Uni saqlab qolish va rivojlantirish uchun sharoit va shijoat talab qilinadi. Tayyor berilgan bilimlarni qabul qilish bilan ijodkorlik shakllanmaydi. Kreativ fikrlash jarayonida tasavvur, hech kimda yo'q g'oyalarni ayta olish, noodatiy qarorlar qabul qilish muhim rol o'ynaydi.

Adabiyotlar tahlili. Kreativlik atamasini ilk bor D. Simpson 1922-yilda fanga kiritgan va tafakkurning nostandart usuli deb ta'rif bergan. Kreativlikni o'rganish bo'yicha Rossiyada A. M. Matyushkin, A. V. Petrovskiy, M. G. Yaroshevskiy, V. N. Drujinin kabi olimlar ish olib borganlar. Guilfordga ko'ra, kreativ fikrlash divergent fikrlash bo'lib, muammoning bir emas, ko'plab noodatiy yechimlarini topishdan iborat [7]. Amerikalik olim D. Veksler: "Kreativlik fikrning shunday turi, u shaxsga bir muammo yoki masala yuzasidan birdaniga bir nechta yechimlar paydo bo'lishini taqozo etadi va shablonli, zerikarli fikrlashdan farq qilib, narsa va hodisalar mohiyatidagi o'ziga xoslik, noyoblik sifatlarini anglashga yordam beradi", – deb ta'rif beradi. 1987-yilda esa "kreativlik otasi" nomi bilan mashhur bo'lgan Pol Torrans kreativlikning to'rtta ko'nikmasini aniqlagan:

1-jadval



Pol Torransning olib borgan tadqiqotlarida har bir shaxsda kreativlik ko'nikmasini rivojlantirish va baholash mumkinligi ta'kidlangan [4]. Xorijiy mamlakatlarda barcha soha mutaxassisleri o'zlarida kreativlik sifatlarining mavjudligi va uning darajasini aniqlab boradilar. Bunda ular E. P. Torransning 1987-yildagi kreativ tafakkurni aniqlovchi testidan foydalanadilar. Bu test shaxs kreativligi va uning darajasini, ijodiy faoliyatini tashkil etishdagi faolligi hamda tezkor fikrlashini baholaydi [8].

Muhokama. Kreativlik tushunchasini sodda misol orqali tushuntirish mumkin. Masalan, ko'pchilik qalamdan faqat yozish vositasi sifatida foydalanishni tasavvur qiladi. Biroq qozoq ta'lim yo'nalishi talabalarida kreativ fikrlash rivojlangan bo'lsa, ular undan kitob uchun belgi, telefon ushlagichi, bezak buyumi yoki boshqa amaliy maqsadlarda ham foydalanish mumkinligini o'ylaydilar. Ya'ni, kreativlik narsa va hodisalarga odatiy qarashlardan tashqariga chiqib yondashish, yangi g'oyalarni ilgari surish hamda noodatiy yechimlarni topish qobiliyatidir. Shu sababli kreativ inson mavjud imkoniyatlar bilan cheklanmay, doimo yangilik yaratishga intiladi.

Aynan kreativlik yangi g'oyalar va innovatsiyalarning muhim manbai hisoblanadi [5]. Aynan u ilg'or texnika va ixtirolarning rivojlanishiga olib keladi. Agar Microsoft asoschisi Bill Geyts mashhur Windows dasturini yaratmaganida nima bo'lar edi? Yoki smartfon yoki Bluetooth qurilmalari ixtiro qilinmaganida nima sodir bo'lardi? Shubhasiz, bu qurilmalar ayrim insonlarning ijodiy faoliyati mahsuli bo'lib, kreativlik natijasidir [3]. Mazkur jihatlar qozoq ta'lim yo'nalishi talabalarida ham kreativ salohiyatni rivojlantirishning muhimligini ko'rsatadi.

Har bir inson tug'ilganda o'ziga xos kreativlik qobiliyati bilan dunyoga keladi, biroq bu ko'nikmaning rivojlanishi hayotining keyingi bosqichlariga bog'liq bo'ladi. Ijodkorlikning to'liq namoyon bo'lmay qolishiga sabab bo'luvchi omillar juda ko'p. Agar qozoq ta'lim yo'nalishidagi bo'lajak pedagoglar buyruqlarga rioya qilishga va belgilangan fikrlash namunalari amal qilishga odatlangan bo'lsa, ular qanday qilib ijodiy fikr yuritadi? Eng muhimi, yangi g'oyalarni qanday yaratadi? Oliy ta'lim muassasalarida, xususan, qozoq ta'lim yo'nalishi talabalarida kreativ g'oyalarni shakllantirish va rivojlantirish uchun yetarli darajada qulay muhit yaratilganmi? Demak, qozoq ta'lim yo'nalishi talabalarida kreativ fikrlashni rivojlantirish uzluksiz mashq qilishni, mustaqil izlanishni hamda shaxsiy rivojlanishga yo'naltirilgan faoliyatni talab etadi.

Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarida kreativlik ko'nikmalarini shakllantirishda quyidagi amaliy usullardan foydalanish tavsiya etiladi:

Tabiat qo'ynida sayr qilish – yangi taassurotlar olish va tafakkurni erkinlashtirishga yordam beradi.

Komfort zonasidan chiqish – yangi vaziyat va tajribalarni sinab ko'rish orqali ijodiy fikrlashni rag'batlantiradi.

Psixologik masofa yaratish – muammoga turli nuqtai nazardan qarash va obyektiv xulosa chiqarish imkonini beradi.

Mutolaa qilish – ilmiy, badiiy va ommabop adabiyotlarni o'qish dunyoqarashni kengaytiradi hamda yangi g'oyalar paydo bo'lishiga xizmat qiladi.

Musika tinglash – emotsional holatni barqarorlashtirib, tasavvur va ilhomni kuchaytiradi.

Muntazam yozish – fikrlarni tartibga solish, yangi g'oyalarni qayd etish va ijodiy tafakkurni rivojlantirishga yordam beradi.

Sog'lom turmush tarziga amal qilish – muvozanatli ovqatlanish va jismoniy faollik aqliy faoliyat samaradorligini oshiradi.

Bir xillikdan voz kechish – kundalik faoliyatga yangilik kiritish stereotip fikrlashni kamaytiradi va kreativ yondashuvni rivojlantiradi.

Kreativ insonlar bilan muloqot qilish – tajriba almashish va yangi qarashlarni o'zlashtirish imkonini yaratadi.

Xato qilishdan qo'rqqanlik va tajriba o'tkazish – yangi g'oyalarni sinovdan o'tkazish ijodkorlikni rivojlantirishning muhim shartlaridan biridir.

Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarida kreativlik ko'nikmalarini rivojlantirishda o'quv jarayonini no'anaviy shakllarda tashkil etish muhim ahamiyatga ega. Bunday mashg'ulotlar talabalarining mustaqil fikrlashi, muammolarga turli nuqtai nazardan yondashishi hamda innovatsion g'oyalarni ilgari surishiga xizmat qiladi. Dars jarayonida quyidagi kreativ metodlardan samarali foydalanish mumkin:

1. Munozarali dars. O'qituvchi dolzarb yoki bahsli mavzuni taklif etadi, talabalar esa o'z fikr va qarashlarini dalillar asosida himoya qiladilar. Ushbu metod tanqidiy va kreativ fikrlashni rivojlantiradi.

2. Rolli yoki biznes o'yini. Talabalar muayyan kasbiy yoki hayotiy vaziyatni modellashtirib, mavjud muammoning turli yechimlarini ishlab chiqadilar. Bunday faoliyat ijodiy yondashuv va qaror qabul qilish ko'nikmalarini shakllantiradi.

3. Konferensiya shaklidagi dars. Mashg'ulot mavzusi oldindan e'lon qilinadi va talabalar kichik guruhlariga bo'linib, ma'lum yo'nalish bo'yicha taqdimot tayyorlaydilar. Muhokama va savol-javoblar jarayonida ularning tahliliy hamda kreativ fikrlash qobiliyati rivojlanadi.

4. Mutaxassis bilan uchrashuv. Darsga turli soha vakillari – olimlar, yozuvchilar, amaliyotchi pedagoglar yoki boshqa mutaxassislar taklif etilib, ularning tajribasi asosida mavzu yoritiladi. Bu usul talabalarining kasbiy dunyoqarashini kengaytiradi va yangi g'oyalar paydo bo'lishiga turtki beradi.

5. Integratsiyalashgan dars. Ikki yoki undan ortiq fan mazmunini o'zaro bog'lagan holda tashkil etiladigan mashg'ulotlar talabalarda fanlararo bog'liqlikni anglash va bilimlarni kompleks qo'llash ko'nikmasini rivojlantiradi. Natijada ular real hayotiy muammolarni kreativ yondashuv asosida hal qilishga o'rganadilar.

6. Kreativ didaktik o'yinlar. Talabalarining tasavvuri va ijodiy tafakkurini rivojlantirishda didaktik o'yinlardan foydalanish yuqori samara beradi. Masalan, "Noodatiy reklama" mashqida ishtirokchilarga oddiy yoki eskirgan buyumlar (eski daftar, siniq ruchka, ishlatilgan quti, tugmasiz ko'ylak va boshqalar) beriladi. Ular ushbu buyumni eng foydali va jozibador mahsulot sifatida taqdim etishlari, uning yangi vazifalarini o'ylab topishlari hamda xaridorni ishonitirishga harakat qiladilar. Ushbu mashq talabalarni stereotip fikrlashdan chiqishga, tasavvurini kengaytirishga va kreativ g'oyalarni erkin ifodalashga undaydi.

Mazkur metod va usullarni pedagogik ta'lim jarayoniga tizimli ravishda joriy etish bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining kreativlik ko'nikmalarini rivojlantirish, ularning kasbiy kompetentligini mustahkamlash hamda kelajakdagi pedagogik faoliyatida innovatsion yondashuvlarni samarali qo'llashiga xizmat qiladi.

Natijalar. Tadqiqot natijalari qozoq ta'lim yo'nalishida tahsil olayotgan bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarida kreativlik ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan metodik yondashuv o'zining ijobiy samarasini berganini ko'rsatdi. Mashg'ulotlarda munozarali darslar, integratsiyalashgan topshiriqlar, didaktik o'yinlar, loyihaviy faoliyat va turli kreativ vazifalardan muntazam foydalanish qozoq ta'lim yo'nalishi talabalarining mustaqil fikrlashi, muammolarga yangicha yondashishi hamda o'z g'oyalarni erkin ilgari surishiga yordam berdi. Darslarda qo'llanilgan interfaol metodlar talabalarining faolligini oshiribgina qolmay, balki ularning jamoada ishlash, fikr almashish, tahlil qilish va mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalarini ham rivojlantirdi. Shuningdek, real pedagogik vaziyatlar asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar va nostandart topshiriqlar qozoq ta'lim yo'nalishidagi bo'lajak boshlang'ich ta'lim

o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini mustahkamlashda muhim o'rin tutadi.

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, qozoq ta'lim yo'nalishi talabalarida kreativlik o'z-o'zidan shakllanmaydi. Uni rivojlantirish uchun ta'lim jarayonini izchil va maqsadga yo'naltirilgan holda tashkil etish zarur. Bunda o'qituvchining yangicha yondashuvi, erkin va ijodiy ta'lim muhitining yaratilishi, zamonaviy pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanish hamda talabalarining mustaqil izlanishlarini qo'llab-quvvatlash muhim ahamiyatga ega. Aynan shunday sharoitda qozoq ta'lim yo'nalishidagi bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining kreativ kompetensiyasi bosqichma-bosqich rivojlanib, ularning kelgusidagi kasbiy faoliyatiga mustahkam zamin yaratiladi.

2-jadval.Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarida kreativlik ko'nikmalarini rivojlantirish

Bosqich	Maqsad	Qo'llaniladigan metodlar	Kutilayotgan natija
1. Motivatsion bosqich	Talabalarda kreativ fikrlashga qiziqish va ehtiyojni shakllantirish	Muammoli savollar, aqliy hujum (Brainstorming), motivatsion videolar, munozara	Kreativ faoliyatga ijobiy motivatsiya shakllanadi
2. Bilimlarni shakllantirish bosqichi	Kreativlikning nazariy asoslarini o'zlashtirish	Mini-ma'ruza, keys-stadi, konseptual xaritalar, klaster usuli	Kreativlik va uning pedagogik ahamiyati haqida bilim hosil qilinadi
3. Amaliy faoliyat bosqichi	Kreativ ko'nikmalarni rivojlantirish	Didaktik o'yinlar, rolli o'yinlar, loyiha metodi, integratsiyalashgan darslar, "SCAMPER", "Olti shlyapa" metodlari	Muammolarni ijodiy hal qilish va yangicha g'oyalar ishlab chiqish ko'nikmalari rivojlanadi
4. Refleksiya va baholash bosqichi	Faoliyat natijalarini tahlil qilish va o'z-o'zini baholash	Refleksiya, portfolio, SWOT-tahlil, o'zaro baholash	Talabalar o'z kreativ rivojlanish darajasini tahlil qiladi va takomillashtirish yo'nalishlarini belgilaydi

3-jadval.Metodikaning samaradorlik mezonlari

Mezon	Ko'rsatkichlar
Motivatsion	Kreativ faoliyatga qiziqish, yangilik yaratishga intilish
Kognitiv	Kreativlik nazariyasi va metodlarini bilish
Faoliyatli	Muammolarga noodatiy yechim topish, yangi g'oyalar ishlab chiqish
Refleksiv	O'z faoliyatini tahlil qilish va baholash, xatolardan xulosa chiqarish

Xulosa.Bugungi kunda qozoq ta'lim yo'nalishida tahsil olayotgan bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarida kreativlik ko'nikmalarini rivojlantirish pedagogik ta'limning muhim yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, kreativlikni izchil rivojlantirish bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini mustahkamlash, mustaqil va tanqidiy fikrlashini rivojlantirish hamda ta'lim jarayoniga innovatsion yondashuvlarni samarali tatbiq etishda muhim o'rin tutadi. Qozoq ta'lim yo'nalishi talabalar uchun kreativ fikrlash kelgusidagi pedagogik faoliyatda turli vaziyatlarga moslashish, muammolarni samarali hal etish va darslarni mazmunli tashkil etishga xizmat qiladi.Tadqiqot davomida interfaol metodlar, didaktik o'yinlar, muammoli vaziyatlar, loyihaviy faoliyat, integratsiyalashgan mashg'ulotlar hamda reflektiv yondashuvlardan muntazam foydalanish qozoq ta'lim yo'nalishi talabalarining kreativ salohiyatini rivojlantirishda samarali natija berishi kuzatildi. Mazkur metodlar talabalarining ijodiy tafakkurini kengaytirish, yangi g'oyalarni erkin ilgari surish, o'z fikrini asoslab bera olish hamda kelgusidagi kasbiy faoliyatida uchraydigan pedagogik muammolarga innovatsion yechim topish ko'nikmalarini shakllantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shu bois qozoq ta'lim yo'nalishidagi bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini tayyorlash jarayonida kreativlikni rivojlantirishga qaratilgan metodlardan tizimli foydalanish ta'lim sifatini oshirishning muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Yuvashov Sh., Akbarov B. Kreativ fikrlash: o'quv qo'llanma. 60310100 – Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) ta'lim yo'nalishi bakalavriat bosqichi talabalar uchun. – Namangan, 2024. – 176 b.
2. Fayzullayeva G. Sh. O'qituvchi kreativ potensialini oshirishda P5BL yondashuvi qonuniyatlarining ahamiyati // Sifatli ta'limni tashkil etishda shaxs kreativ potensialini oshirishning dolzarb masalalari mavzusidagi yosh olimlar, doktorantlar, magistrantlar va talabalarining an'anaviy Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – Jizzax: Jizzax viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi, 2024.
3. Pardabayev J. E., Axmedova M. E., Samandarova M. Q., Ruziyeva M. M., Pardabayeva D. G'. Kreativ pedagogika: darslik. – Toshkent: Bookmany Print, 2026. – 222 b.
4. Jurayeva N. Mahoratli pedagog. – 2025. – № 9.
5. Oslanova K. S. 4K modeli ko'nikmalarini rivojlantirishda innovatsion usullardan foydalanish: uslubiy qo'llanma. – Jizzax, 2024. – 34 b.
6. Boshlang'ich ta'lim. – 2025. – № 4. – B. 32.
7. Qurbonova G. R. Maktabgacha yoshdagi bolalarda kreativ fikrlashni rivojlantirishda noan'anaviy pedagogik yondashuvlarning roli // Pedagogik mahorat. – 2025. – № 11.
8. Rahmonova M. Q., Karamov B. K., Sulaymonova M. E. Kreativ pedagogika: darslik. – Chirchiq: Osiyo Tur, 2024.– 228 b.

- b.
9. Akhmedova M. et al. Investigating the Role of Epigenetics in the Evolution of Language and Speech Patterns Across Different Cultures // Journal of Internet Services and Information Security (JISIS). – 2026. – Vol. 16, No. 1. – P. 237–252. – DOI: 10.58346/JISIS.2026.I1.014.
10. Samandarova M. K. Methodological Significance of Social Activity in Preparing Students for Professional Activity // European International Journal of Pedagogics. – 2025. – Vol. 5, No. 11. – P. 172–175. – DOI: 10.55640/eijp-05-11-40.